

“Hududgazta’minot” AJning
2022 yil “23” iyun dagi
5-son Idoraviy xarid
komissiyasining yig‘ilish bayoni
1-son ilovasi

Bajaruvchi tashkilotni tanlab olish uchun
TANLASH XUJJATLARI

Tanlash xujjatlarining mazmuni:

- I. Tanlash ishtirokchilari uchun yo‘riqnoma.**
- II. Texnik topshiriq**
- III. Shartnoma loyihasi**

TANLASH ISHTIROKCHISI UCHUN YO‘RIQNOMA

1. UMUMIY QISM

1.1. Ushbu tanlash hujjatlari "Davlat xaridlari to‘g‘risida"gi 2021-yil 22-apreldagi O‘RQ-684 sonli O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq ishlab chiqilgan.

1.2. **Tanlash predmeti:** “Hududgazta‘minot” ehtiyojlari uchun gaz ta‘minoti filliarlarning omborlarida mavjud demontaj qilingan po‘lat quvurlarni yaroqliligini aniqlasni hamda guruhlarga ajratish xizmatini xarid qilish.

1.3. **Asos:** “Hududgazta‘minot” AJning 2022-yil 31-maydagi №14-169-sonli xizmat xati.

1.4. **Tanlash qiymati** – 990 868 765 (to‘qqiz yuz to‘qson million sakkiz yuz olmish sakkiz ming yetti yuz olmish besh) so‘mni (QQS bilan) tashkil qiladi.

1.5. Bajariladigan ish turlari texnik topshiriq tanlash xujjatlarining texnik qismda ilova qilingan.

1.6. Tanlash shakli – elektron shaklida (www.etender.uzex.uz).

2. TANLASH TASHKILOTCHILARI

2.1. “Hududgazta‘minot” AJ “Buyurtmachi” hisoblanadi.

“Buyurtmachi” manzili: Toshkent shahar Chilonzor tumani Muqimiy ko‘chasi 98-uy.

Rekvizitlari:

STIR: 306605769, MFO: 00435, x/r: 20210000505113960001,

AKB «O‘zsanoatkurilishbank» Rakat filiali.

Mas‘ul xodim – U. Kuldashov. Tel: +998 90 907 26 07

E-mail: info@hududgaz.uz

2.2. Shartnomaga mas‘ul “Hududgaz Komplektatsiya” UK.

2.3. Tanlash “Hududgazta‘minot” AJ tomonidan tuzilgan idoraviy tanlash komissiyasi tomonidan elektron (www.etender.uzex.uz) shaklda o‘tkaziladi.

3. TANLASH ISHTIROKCHILARI

3.1. Tanlashda quyidagi mezonlarga muvofiq bo‘lgan yuridik firmalar qatnasha oladi:

shartnomani bajarish uchun zarur texnikaviy, moliyaviy, moddiy, kadrlar resurslarining hamda boshqa resurslarning mavjudligi;

shartnoma tuzish uchun qonuniy huquqqa egalik;

solliqlar va yig‘imlar bo‘yicha qarzdorlikning mavjud emasligi;

o‘ziga nisbatan joriy etilgan bankrotlik tartib-taomillarining mavjud emasligi;

insofsiz ijrochilarning yagona reestrda qayd etilmaganligi;

3.2. Tanlashda ishtirok etishi uchun talabgorlarga quyidagi malakaviy talablar qo‘yiladi:

-Bajaruvchi hisob raqamida konkursdagi xizmat summasini 20% miqdorida pul mablag'i mavjud bo'lishi yoki shu miqdorda aylanma mablag'i borligi to'g'risida bank kafolati;

-Bajaruvchining bank va soliqlardan qarzi yo'qligi va qaysi turdagi soliq to'lovchi ekanligi to'g'risida ma'lumotlar bo'lishi;

-Bajaruvchi balansida mavjud mashina-mexanizmlari xaqida ma'lumotlar yoki kerakli mashina va mexanizmlar bilan ta'minlovchi korxonaning kafolat xati;

-Bajaruvchi tashkilot bankrot emasligi to'g'risida ma'lumot;

-Bajaruvchi tashkilotning oxirgi uch yil mobaynida bajargan ishlari hamda tanlov obyektiga o'xshash obyektlarda bajargan ishlari to'g'risida ma'lumot;

-Bajaruvchi tashkilot nizomi va ro'yxatdan o'tkazilganligi to'g'risida ma'lumot nusxasi va tashkilot takribiy strukturasi;

-Buyurtma berilganda bajaruvchi tashkilot tomonidan qisqa muddatda ishlarini sifatli bajarilishi;

-O'zbekiston Respublikasi Sanoat xavfsizligi davlat qo'mitasi tomonidan mazkur xizmatlarni bajarish uchun berilgan Ruxsat etish xususiyatiga ega hujjat bo'lishi "Ultratovush, radiografik, tolshinometriya, kapilyar usulda ishlarni amalga oshirish uchun";

-“Akkreditatsiya markazi” DUKning sinov laboratoriyasini maqullash to'g'risida guvohnoma va viloyat akkreditatsiyasi bo'lishi;

-Radiografik va ultratovushli usullarda ishlarni amalga oshirish uchun xodimlarning muvofiqlik sertifikatini bo'lishi;

-Xizmatlarni sifatli bajarilgani aniqlansa, bajaruvchi tomonidan zudlik bilan bartaraf qilinishi to'g'risida kafolat xati;

3.3. Takliflarni baxolash mezonlari.

Takliflarni baholash 3.2 badda ko'rsatilgan talablar asosida amalga oshiriladi, bunda xar bir muvofiqlik 5(bir) ballga teng.

3.4. Qo'yidagi talabgorlarga tanlash jarayonlarida ishtirok etishga ruxsat berilmaydi:

qayta tashkil etilish (ajratilishi, qo'shilish), tugatish yoki bankrotlik arafasida turganlar, mol-mulki musodara qilinganlar, hamda muassislik kelishuv, moliyaviy ishtirok, xolding va boshqa shaklda ifodalangan bevosita tashkiliy-xuquqiy yoki bir biriga moliyaviy qaramligi mavjudlar.

Shuningdek, manfaatlar to'qnashuvi; narxlarni buzish yoki ishtirokchilarni tanlash natijalarini buzish maqsadida ishtirokchilar bilan oldindan til biriktirish; firibgarlik, soxtalashtirish va korrupsiyaning namoyon bo'lganda.

Agar ushbu holatlar aniqlansa, protseduraning istalgan bosqichida tanlash to'xtatilishi (bekor qilinishi) mumkin.

4. TANLASHDA ISHTIROK ETISH UCHUN TAKLIFLARNI TAKDIM ETISH

4.1. Ishtirokchilar o'z takliflarini elektron ko'rinishda (**etender.uzex.uz**) portaliga tanlov takliflarini elektron konvert ko'rinishida o'zlarining shaxsiy kabinetlari orqali elektron tanlovni o'tkazish to'g'risidagi e'londa ko'rsatilgan muddatdan kechiktirmay operator tomonidan belgilangan formatlarda taqdim etadi. Har bir joylashtirilgan elektron hujjat ishtirokchining elektron raqamli imzosi bilan tasdiqlangan holda elektron tanlovlar o'tkazish uchun joylashtirishli lozim.

Tanlov taklifi bilan birgalikda ishtirokchilar eskizlar, rasmlar, chizmalar, fotosuratlar va boshqa hujjatlarni fayl sifatida joylashtirishlari mumkin.

Bunda ishtirokchilarning tanlov takliflari elektron tizimdagi shablonlarga muvofiq hujjatlarni biriktirish orqali taqdim etiladi. Ishtirokchi tomonidan ko'rsatilgan ma'lumotlar biriktirilgan hujjatlardagi ma'lumotlarga mos kelishi kerak.

4.2. Tanlash uchun takliflar va unga tegishli ilovalar va xujjatlar, ma'lumotlar "Buyurtmachi" va "Ishtirokchi" o'zbek tilida taqdim etishlari lozim. Ixtiyoriy rus tilida taqdim etilishi mumkin.

4.3. Tanlash xujjatlarida quyidagilar taqdim etilishi lozim:

- Texnik qism, "Buyurtmachi" tomonidan qo'yilgan texnik talablarni va bajariladigan ish va xizmatlar ko'rsatilishi kerak;

- Narxlar qismi, tanlash shartlarida belgilangan narxlar doirasida, xizmatlarni bajarish muddatlari, to'lovlar tartibi va yakuniy to'lovlar va boshqa bog'liq ko'rsatkichlar ko'rsatilgan bo'lishi kerak.

4.5. Tanlash ishtirokchisi:

-faqat bitta taklif berishi mumkin;

-taqdim etilayotgan xujjatlar va axborotlarning haqiqiyligi va ma'lumotlarning haqqoniyligiga to'liq javobgar bo'ladi;

-takliflar berish muddati tugagunga qadar o'z takliflarini qaytarib olish yoki o'zgartirish kiritishgi xaqli.

4.6. Taklifning amal qilish muddati 30 kalendar kunidan kam bo'lmasligi kerak.

4.7. Tanlash 2 bosqichda amalga oshiriladi.

5. TAKLIFLARNI TAQDIM ETISH MUDDATINI UZAYTIRISH

5.1. Xarid komissiyasi tanlash uchun takliflarni qabul qilish muddatini barcha ishtirokchilar uchun taa'luqli holda e'lon qilingan muddatdan yana 5 kalendar kunga uzaytirishi mumkin.

5.2. Takliflar muddatini uzaytirilishi faqat xarid komissiyasi yig'ilishi qarori asosida amalga oshiriladi.

5.3. Tanlash muddatini uzaytirish to'g'risidagi qaror maxsus axborot portalida joylashtirilishi lozim.

6. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI

6.1. Davlat xaridlari to'g'risidagi Qonun talablarini buzgan shaxslar qonunchilikda belgilangan tartibda javobgar bo'ladilar

6.2. Xarid komissiyasi davlat xaridlari bo'yicha qonunchilikda belgilangan tartibda g'olib ishtirokchilarni aniqlash va asoslangan qaror qabul qilish bo'yicha majburdir.

6.3. Tanlash ishtirokchisi taqdim etilgan barcha xujjatlarni xaqiqiyligi va to'g'riligi javobgardir. G'olib ishtirokchi deb topilgandan so'ng qonunchilikda belgilangan tartibda davlat buyurtmachisi bilan o'rnatilgan tartibda va muddatlarda shartnoma tuzishga majburdir.

7. BOSHQA SHARTLAR

7.1. Davlat buyurtmachisi tanlash hujjatlariga o'zgartishlar kiritish to'g'risida tanlashda ishtirok etish uchun takliflar berish muddati tugaydigan sanadan kamida bir kun oldin qaror qabul qilishga haqli. Tovarni (ishni, xizmatni) o'zgartirishga yo'l qo'yilmaydi. Bunda ushbu tanlashda takliflar berish tugaydigan muddat tanlash hujjatlariga o'zgartishlar kiritilgan sanadan e'tiboran kamida uch kunga uzaytirilishi kerak. Shu bilan bir vaqtda, agar e'londa ko'rsatilgan axborot o'zgartirilgan bo'lsa, tanlash o'tkazish to'g'risidagi e'longa o'zgartishlar kiritiladi.

7.2. Tanlash ishtirokchisi tanlash hujjatlari qoidalarini tanlash o'tkazish uchun e'londa belgilangan shaklda tushuntirish talabi bilan davlat buyurtmachisiga so'rov yuborishga haqli. So'rov kelib tushgan sanadan e'tiboran ikki ish kuni ichida davlat buyurtmachisi, agar mazkur so'rov davlat buyurtmachisiga takliflar berish muddati tugaydigan sanadan kamida ikki kun oldin kelib tushgan bo'lsa, ushbu so'rovga belgilangan shaklda javob yuborishi shart. Tanlash hujjatlarining qoidalariga doir tushuntirishlar ularning mazmun-mohiyatini o'zgartirmasligi kerak.

7.3. Takliflarni ko'rib chiqish va baholash bayonnomasi xarid komissiyasining barcha a'zolari tomonidan imzolanadi hamda undan olingan ko'chirma u imzolangan kundan e'tiboran uch ish kuni ichida maxsus axborot portalida e'lon qilinadi.

7.4. Tanlashning istalgan ishtirokchisi takliflarni ko'rib chiqish va baholash bayonnomasi e'lon qilinganidan so'ng davlat buyurtmachisiga tanlash natijalariga doir tushuntirishlarni taqdim etish to'g'risida so'rov yuborishga haqli. Davlat buyurtmachisi bunday so'rov kelib tushgan sanadan e'tiboran uch ish kuni ichida tanlash ishtirokchisiga tegishli tushuntirishlarni taqdim etishi shart.

7.5 Tanlash natijalari bo'yicha shartnoma tanlash hujjatlarida va o'zi bilan shartnoma tuzilayotgan tanlash ishtirokchisi tomonidan berilgan taklifda ko'rsatilgan shartlar asosida tuziladi.